

2017-YIL – XALQ BILAN MULOQOT VA INSON MANFAATLARI YILI

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:51 (67112)
2016-yil
19-dekabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

TAHRIRIYATDAN
QO'NG'IROQ QILYAPMIZ

YOSH ISTE'DODLARNI BIRGA KASHF ETAMIZ

She'riyat mulkinging sultoni, buyuk bobo-kalonimiz nomi bilan ataluvchi Navoiy viloyati haqida so'z ketganda, hudud yoshlarining ta'lim, sport va san'at yo'nalishlarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari qalbimizni faxr-u g'ururga to'ldiradi. Fursatdan foydalanib, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Alisher RAJABOV bilan telefon orqali bog'lanib, u kishidan o'zimizni qiziqtirgan savollarga javob oldik.

– Alisher aka, yil yakunlanib borgani sari har bir inson ortga nazar tashlab, qilgan ishlari, erishgan yutuqlarini sarhisob qiladi. Shu ma'noda o'tib borayotgan 2016-yil Navoiy viloyati ta'lim tizimida qanday iz qoldirdi?

– Oxirlab borayotgan yil viloyatimiz hayotida quvonchli voqealarga boy bo'ldi, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi. «Sog'lom ona va bola yili» nomi bilan tarix zarvaraqilariga muhrlangan 2016-yil iftixor etishga arzigulik yuksak muvaffaqiyatlar, ulkan o'zgarishlar va bunyodkorliklar davriga aylandi.

(Davomi 3-betda)

ADIB BILAN
UCHRASHUV
(4-bet)

Aziz o'quvchilar!
«TONG YULDUZI»

gazetasiga
2017-YIL UCHUN OBUNA
mavsumi davom etmoqda!

Siz maktab kutubxonasi yoki
uyingizga yaqin aloqa bo'limlarida
obuna bo'lishingiz mumkin.

Nashr ko'rsatkichi - 198

N. SULTONOV o'lgan suratlar

Bizga maktub yo'llabsiz...

E'ZOZ

4-dekabr kuni xalqimiz tarixida yana bir muhim siyosiy voqea ro'y berdi. Aynan shu kuni butun O'zbekiston aholisi o'zlarining yana bir konstitutsiyaviy burchlarini amalga oshirdilar.

Fuqarolarimiz Prezident saylovida o'zlari tanlagan nomzodga ovoz berdilar. Eng ko'p ovoz to'plagan Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Mamlakatimiz rahbari yuksak minbardan turib, «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan vaqt keldi», deya kirib kelayotgan yangi 2017-yilni «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» deb nomlashni taklif qildilar.

Bu taklif tufayli yurtdoshlarimiz qalbi yana bir bor faxr va iftixor tuyg'usi bilan to'lib-toshdi.

Kirib kelayotgan «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini» yili yurtimizga tinchlik va farovonlik olib kelsin.

Sitora NAPASOVA,

Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

O'ZBEKISTON – JANNATIM MENING

Vatan! Bu so'zni eshitganimizda, yuragimiz hapqirib ketadi. Uning zamirida olam-olam ma'no bor. Ana shu beshta harfdan iborat so'zda beqiyos go'zallik mujassam. Go'yo marjondek terilgan gavharga o'xshaydi.

Vatanimiz baxtli, nurli koshona. Nega aynan nurli koshona? Chunki Vatan o'stona dan boshlanadi. U kindik qonimiz tomgan tuproq. Yurtimizdan baxt isi ufurib tura-di-yu, uni nurli koshona deb bo'lmaydimi? Albatta, bo'ladi. Uning bepoyon dalalari, bog'-u bo'stonlari, chamanzorlari, shirin mevalari, shirmoy nonlari, purviqor tog'lari-yu, zilol suvlari buning isbotidir.

O'lkamni ta'riflab adog'iga yetolmayman. Chunki, aslida ham shunday. Men obod va ozod Vatanda yashayotgan, peshonasi yarqiragan, baxtli farzandman.

Mehriyona ULASHEVA,

Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi
18-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

SINFIMIZ BILAN OBUNA BO'LDIK

Assalomu alaykum, biz uchun sevimli bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlari! Biz sinfimiz bilan sevimli nashrimizga 2017-yil uchun birinchilardan bo'lib obuna bo'ldik.

Sinfidoshlarimiz bilan uning har sonini diqqat bilan o'qiydiz. Maqola-yu she'rlarni, hikoyalarni muhokama qilamiz, bahslashamiz, birgalikda xulosalar chiqaramiz. Yangi e'lon qilingan «Men yosh – vatanparvar» hamda «Jannat onalar oyog'i ostidadir» tanlovlarida faol qatnashish maqsadida o'z harakatimizni boshlab yuborik, ijod namunalimizni tayyorlayapmiz. O'zim she'r hamda hikoyalar yozypman. Yaqinda ularni ham tahririyatga yuborish niyatidaman.

Fotima NORMAMATOVA,

Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi
1-IMning 6-«A» sinf o'quvchisi

«MEN – YOSH VATANPARVAR» TANLOVIGA

TINCHLIKKA HAMISHA QALQON

Xalqimiz baxtiyor, bolalar shodon, Oq kabutar to'la musaffo osmon. Ezgulik, tinchlikka hamisha qalqon, Vatan posbonlari, omon bo'lingiz!

Shamol-u garmsel sizga oddiy hol, Aslo qo'rqitilmas to'fon-u shamol. Tog'larga tirmashib topganlar kamol, Askar akajonlar, omon bo'lingiz!

Buyuk Turon Amu Siring orasi, Temur bobomlarning ko'zin qorasi. O'z yurtin qo'riqlar mardlar sarasi, Vatan posbonlari omon bo'lingiz!

Sarvinoz TURSUNOVA,

Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumanidagi
40-umumta'lim maktabining 6-«D» sinf o'quvchisi

Har bir viloyatning o'z tarixi, madaniyati, o'ziga xos an'analari bor.

NURLI ORZULAR

Men shunday tarixiy obidalar va qadamlarga boy go'zal maskanda yashayman. Ustozim va birinchi o'qituvchim Azzatjon Azimova o'qish, yozishni, axloq-odobni o'rgatib kelmoqda. 2014–2015-yildagi a'lo o'qishim, intizomli xulqim uchun faxriy yorliq bilan taqdirlanganman. Bunda ustozimni o'rni beqiyos deb hisoblayman. Matematika, ingliz tili, rus tili fanlariga juda qiziqaman. Kelajakda ota-onam, ustozim men bilan faxrlanib yurishlarini istayman. Buning uchun juda ko'p o'qib-izlanishim kerak. Vatanim yanada gullab-yashnashida hissamni qo'shish asosiy orzum. Ota-bobalarimiz intilganga tole yor, deb bekorga ay-tishmagan.

Sevinchoy ABDURAHIMOVA,

Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi
40-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchisi

YUTUQLAR QANOT BAG'ISHLAYDI

Qoraqalpoqcha kuyga maromiga yetkazib raqsga tushayotgan yigit-qizlarning labidagi tabassum, ko'ngillaridagi quvonch tomoshabinlarga ham o'tdi. Ularni olqishlayotgan o'qituvchilar, o'quvchilar tasannolar aytishdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazida tashkil etilgan to'garaklarda ana shunday iqtidor egalari ko'pchilikni tashkil etadi. Markaz direktori vazifasini bajaruvchi Roza TOLESHOVA to'garak a'zolari haqida quyidagilarni gapirib berdilar:

– Maskanimizda 2016 – 2017-o'quv yili uchun 21 to'garakda 48 ta guruh tashkil qilinib, ularga 480 nafar o'quvchi qabul qilindi. O'quvchilarning ijodiy salohiyatlarini ko'rikdan o'tkazish maqsadida tashkil etilgan «Texnik ijodkorlik» yo'nalishida «Xonada uchuvchi samolyot» modellar musobaqasida Nurbek Toleshov, Elbek Tolibayev, Asadbek Kamiljanovlar g'olib deb topilib, Nukus shahriga yo'llanma oldilar.

Nukus shahrida «Texnik ijodkorlik» yo'nalishida «Bolalar texnik ijodkorligi» festivalida qatnashgan Suhrob Yusu-pov, Jasur Ametov, Ixlos Matupayev, Rahmatjon Al-lambergenov hamda Shohrux Rajapov faol qatnashganligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlanishdi.

Markazimizda tashkil etilgan «Munchoqli bezak» to'garagining faol a'zolaridan Zulayho Yuldasheva hamda Gullalek Ave-zovalarning ham yutuqlari bisyor.

To'garak rahbari Nargiza Yuldasheva munchoqli bezash sirlarini qizlarga mukammal o'rgatib kelmoqda. Markazimizda Nargiza singari jonkuyar o'qituvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular o'quvchi yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga katta ahamiyat qaratishmoqda.

Markaz rahbarining bu gaplari nafaqat o'quvchilarga, balki o'qituvchilarga ham qanot bag'ishlaydi. Zero,



mukammal o'rganilgan hunar kuni ke-lib, albatta, ko'pchilikning e'tirofi hamda e'tiboriga sazovor bo'lishi, shubhasiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

(Davomi. Boshi 1-betda)

YOSH ISTE'DODLARNI BIRGA KASHF ETAMIZ

Jumladan, ta'lim sifatining kompleks ko'rsatkichlari asosida tayyorlanayotgan respublika reytingida Navoiy shahar 11-DIUM 6 yildan buyon yurtimizdagi 10 mingdan ziyod maktablar orasida 1-o'rinni egallab kelayotgan viloyat



pedagog jamoasining ulkan yutug'idir. Qolaversa, o'quvchilarning aqliy salohiyati, iste'dod va iqtidorlarini yuzaga chiqarish maqsadida «Siz Navoiyni bilasizmi?», «Orasta qizlar», «Kamalak» yulduzlari», «Bahor kamalagi», «Huquq bilimdonlari – 2016», «Yashil chiroq» kabi ko'plab ko'rik-tanlovlar va fan olimpiadalaridagi qo'lga kiritilgan natijalar ta'lim tizimida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarining samarasini ko'rsatayotir. Bu yutuqlarga erishishimizda respublika bolalar va o'smirlarining nashri – «Tong yulduzi» gazetasi bizga yaqindan ko'makchi, ezgu ishlarni amalga oshirishimizda hamfikr va maslakdosh bo'layotganini alohida ta'kidlashim lozim.

– **Keyingi yillarda navoiylik o'quvchilarning «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida o'z ijodiy ishlari bilan faol ishtirok etayotgani bizni ham quvontirmoqda...**

– To'g'ri aytasiz. So'nggi yillarda viloyatimiz yoshlari orasida bu gazeta bo'lgan qiziqish yanada ortdi. O'zim ham har gal «Tong yulduzi»ni varaqlay turib, o'quvchilarning bir-biridan mazmunli ijod namunalarini o'qib, iste'dodli yoshlarimiz ko'payib borayotganligidan mamnun bo'laman. Ayniqsa, Muxlisa Qambarova, Sitora Napasova, Umida Sattorova, Dilshoda Mamadiyorova, Farruxjon Safarov, Umida Sulaymonova, Xushvaqt Qodirova, Zilola Barnoyeva kabi bilimga chanqoq, izlanuvchan o'quvchilarning gazetasi sahifalarida e'lon qilingan ko'rik-tanlovlarda, turli loyihalarda faol ishtirok etmoqda. O'ylaymanki, kelajakda 2017-yilda ularning safi yanada kengayadi va yangi-yangi iste'dod egalari birgalikda kashf etamiz.

– **Kirib kelayotgan 2017-yilda gazetaning o'quvchilar qo'lga yanada o'qimishli va mazmunli holda yetib borishi uchun yangi sahifalar, yangi tanlovlar e'lon qilishni maqsad qilganmiz. Bu ham bo'lsa, farzandlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular iste'dodini ro'yobga chiqarish yo'lida amalga oshiriladi...**

– Bu juda yaxshi yangilik. Gazeta qanchalik mazmunli, rang-barang mavzularga boy bo'lsa, o'quvchilar soni ham shuncha ko'payadi, deb o'ylayman. Ishonamanki, viloyatimiz yoshlari ham joriy yilgi obuna mavsumida faollik ko'rsatib, yangi yilda sevimli gazetasi bilan birga bo'ladilar.

– **Mazmunli suhbatning uchun tashakkur.**

Sa'dullo TURSINOV suhbatlashdi

Rahim aka yaqin qo'shnimiz. Nafaqaga chiqqanlariga ancha bo'lgan. Shanba kuni peshingga yaqin ko'chaga chiqqanimda u kishiga duch keldim. Qo'shnimning ham menga ko'zi tushib, quvonib ketdi.

– Hozir mahalla faollaridan bir-ikki kishi chiqadi. Do'xtir oshnamniyam chaqirganman. Birgalashib shunday maktabga kirib chiqaylik.

– Maktabda biror tadbir bor ekanmi? – so'radim uyimizdan sal naridagi maktab tomonga bir qarab olib.

– Boya rahbariga qo'ng'iroq qiluvdim. Bolalarni katta zalga to'plab beraman, degandi. Yangi yil oldidan jujuqlarni bir tabriklab qo'yaylik, – dedi qo'shnim chiroyli jilmayib. – Nevaram Gulruxsor sinf sardori. Bir-ikkita sho'x bolalar paqildoq olib yurishgan ekan, o'shalar bilan aytishib qolibdi.

Qo'shni bilan gurunglashib bo'lgunimizcha boshqalar ham yig'ilib qolishdi. Keyin hamma-miz maktab tomon yo'l oldik.

GULRUXSOR XURSAND BO'LDI

Muhokama uchun mavzu

Istiqlol kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarimiz uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ular yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, fan, sport, san'at sohasida yuksak muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqdalar. Nafaqat yurtimizda, balki xalqaro tanlovlarda mamlakatimiz sharafigini munosib himoya qilmoqdalar.

VATANIMNI KUYLAYMAN

Toshkent viloyatining «Qumovul» qishlog'i fuqarolar yig'inida o'tkazilgan «Keksalar hayoti yoshlarga ibrat» mavzusidagi avlodlar uchrashuvida: «Navbat: «Ko'zmunchoq» ashula va raqs ansambli yakkaxon xonandasi Laziz Akromovga», deb e'lon qilinishi bilan o'quvchilarning qarsaklar anchagacha tinmadi. Yosh xonandaning Vatan, Mustaqillikni madh etuvchi qo'shiqlari tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

– Men 9-umumta'lim maktabining 5-«A» sinfidan o'qiyman. Turli o'yinchoqlar yasash va qo'shiq aytishni, ertaklar, hikoyalar o'qishni, topishmoq, boshqotirmalar topishni yoqtiraman. «Ko'zmunchoq» ashula va raqs ansam-



bliga 2011-yildan beri qatnashaman. Sinf rahbarimiz Sayyora Nosirova iqtidorimni namoyon etishda yaqindan yordam beradilar. «Kamolot» YOIH tomonidan o'tkazilgan «Qadriyat, urf-odat va an'analari», «Vatan, do'stlik va xalqparvarlik uchun», «Mustaqil yurt farzandlari» nomli ko'rik-tanlov va yoshlar festivallari-da ishtirok etib, sovrinlari o'rinlarni qo'lga kiritdim. Kelajakda yurtimizdovrug'ini dunyoga taratishni xohlayman, – deydi yosh iste'dod sohibi.

Orzulari osmon qadar yuksak bo'lgan Lazizjon kabi o'quvchilar davrasidan olam-olam zavq oldik.

Gulchehra KARIMOVA



BOLALIGIM - POSHSHOLIGIM

Bolalik gulshani sizning-la go'zal,
Kulsangiz kun chiqar, to'lin oqshom oy.
Yurtning ertasi siz, aminman tugal –
Jajji Mumtozbeqim, gul Maftunaoy.



chiqindi idishga tashlab ketishibdi, zo'r bo'libdimi?

– Ha, zo'r bo'libdi, – dedim men bilan shoshapisha xayrlashib katta yo'l tomon ketib borayotgan qo'shnimning ortidan qarab qolarkanman. Shu damda o'zbekona urf-odatlarimiz qanday yaxshi-ya, degan xayol yana bir bor ko'nglimdan o'tdi.

Yusuf ABDULLAYEV

SIZNING TENGDOSHINGIZ...

Miniatyura uzoq asrlardan beri insoniyatni o'ziga maftun etib kelayotgan san'at turlaridan biridir. Betakror naqshlar, ranglar jilosida tovlanayotgan asarlar namoyishi ko'ngilga ko'tarinkilik ulashadi. Yurtimizdagi ko'plab tarixiy obidalar, muzeylar, madaniyat saroylarini bezagan miniatyura namunalari o'lkamizda ushbu yo'nalishda ijod qilayotgan rassomlarning mahoratidan darak beradi. Yoshlar orasida ham mazkur san'at turini qunt bilan o'rganayotganlar ko'plab topiladi.

Hikoya qilmoqchi bo'lganimiz Almazbek Sharipov ikki yildan beri poytaxtimizda joylashgan Abulqosim madrasasi qoshida tashkil etilgan hunarmandlar markazida miniatyura san'ati sir-asrorlarini o'rganmoqda. Milliy naqshlarni kontur chiziqchilarda aks ettirishga harakat qilayotgan yosh rassom ustozni Kamoliddin Abdullayevdan kompozitsiya yaratish usullarini o'zlashtirmoqda. Hozirda Mirzo Ulug'bek tumanidagi 18-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida ta'lim olayotgan Almazbek tarix, geografiya, chet tili fanlarini juda yaxshi ko'radi. Shu bilan birga, Toshkent davlat sharqshunoslik institutida tashkil etilgan Konfut-

siy institutida xitoy tilini o'rganmoqda. Jamoat ishlarida tashabbuskor bo'lgan o'quvchisidan sinf rahbari Yelena Kondrashova ham minnatdor.

– Tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyoq, uning bolaligidan turli tarixiy voqealarni kichik shakllarda tasvirlashida namoyon edi. U juda qiziquvchan. Darsdan bo'sh vaqtlarida yonimga kelib, jundan kigiz bosish usulini o'rgatishimni so'raydi. Ko'rib turganingiz bu bejirim boshmoqlarda o'g'limning hissasi katta, – deydi ko'plab xalqaro o'rgazmalar ishtirokchisi Rosiya Jumanazarova.



Qahramonimiz kelajakda yetuk miniatyurachi bo'lib, bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilayotgan, bizgacha to'liq yetib kelmagan Sharq allomalari asarlariga surat ishlashni orzu qiladi. Uning orzulari ushali shiga ishonamiz.

Nurbek QIDIRALIYEV

ADIB BILAN UCHRASHUV

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar sevimli adiblarning asarlari 35 tilga tarjima qilinib, jahonning 28 davlatida nashr etilgani haqida bilib olishdi.



«Oqtepa» mahallasida joylashgan, 1259 nafar o'quvchi tahsil olayotgan ushbu ta'lim dargohiga Sayfulla aka Mahkamov rahbarlik qiladi.

Ma'lumki, yilning so'nggi oyi boshlang'ich sinflarga bag'ishlangan bo'lib, fan oyligi doirasida ochiq darslar, bolalar kitobxonligi, yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

3-«B» sinf o'quvchilari barchamizning sevimli qahramonimizga aylanib ulgurgan Hoshimjonning quvnoq sarguzashtlarini chiroyli sahna ko'rinishlari orqali yig'ilganlarga namoyish etishdi. Shuningdek, ustoz Iroda Mahkamovanning bilag'on shogirdlari ona Vatan, tinchlik, bolalik mavzusida she'r, qo'shiqlar aytishdi. Boshlarida iroqi do'ppi-yu, egnilariga xonatlasdan milliy libos kiygan qizaloqlar o'zbek xalq

raqslarini mohirona ijro etishdi. Ayniqsa, Muhammadzafar Najmiddinov, Aziz Ahrorov, Davron Karimov, Rahmonbek Turg'unboev, Shahzoda Nishonova kabi o'quvchilar tadbirida faol qatnashishdi.

– Buyuklarimiz bilan faxrlanishimiz kerak, – deya so'z boshladilar Xudoyberdi aka. – Davlatimiz rahbari Farnoniga ko'ra, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligi yurtimizda keng nishonlanmoqda. Men ulug' shoir bilan qirq yildan ortiq hamnafas bo'ldim. Qolaversa, u kishi bilan nashriyotda uch yil birga ishladik...

Shuningdek, ardoqli yozuvchimiz uchrashuvda dunyoga mashhur «Sariq devni minib» asarining yaratilish tarixi, dastlab uning «Yaproqlar qarsak chaladi» deb nomlangani, o'tgan asrning 70 yillarida mashhur adib Janni Rodari taklifiga ko'ra ilk bor bu asar italyan tiliga tarjima qilingani haqida-




gi qiziqarli ma'lumotlarni aytib o'tdilar. O'quvchilar adib suhbatini maroq bilan tinglab, o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldilar.

Dilrom HOTAMOVA

Ikromjon O'zganov poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 157- umumta'lim maktabining 9-sinfida o'qish bilan birga, turli shakldagi toshlarga rasm chizish, gugurt qutisidan har xil buyumlar yasash, yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanadi. O'g'lidagi bu qiziqishni ko'rgan otasi Hojimurod aka uni tumandagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazining rassomlik to'garagiga olib bordi. «Yosh musavvir» to'garagi rahbari Sadoqat G'opovadan rassomlik bo'yicha saboq ola boshladi.

AQL KO'PGA YETKAZAR, HUNAR KO'KKA



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

2016-yil Ikromjonga omadli keldi. U OITS kuniga bag'ishlangan rasmlar tanlovida shahar bosqichida 3-o'rinni, «Jaholatga qarshi ma'rifat» rasmlar tanlovida tumanda 2-o'rin sohibi bo'ldi. Umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Biz – buyuk yurt kelajagimiz» respublika rasmlar ko'rik-tanloving «Rangtasvir» yo'nalishida ishtirok etib, I darajali diplom bilan taqdirlandi. «Yurt go'zalligi va milliy urf-odatlar», «Baxtli bolalik», «Xalqaro hamjihatlik», «Bunyodkorlik ishlari», «Hayvonot va nabotot olami» yo'nalishlari bo'yicha o'z ijodiy ishlari bilan qatnashib, g'olib bo'ldi.

– O'g'lim muvaffaqiyatlarini eng avvalo, buvijonisi Ramida Rahmonovaga aytadi. Onam uni hamisha birinchilardan bo'lib alqaydilar, – deydi biz bilan suhbatda Ikromjonning otasi. – Oyisi Hojiya bilan uzoq yillar davomida chinni zavodida chinniga gul-lar chizganmiz. Shu sabablimi, kichik o'g'lim rassomlikka qiziqdi. Chizgan rasmlarini menga ko'rsatadi, maslahat oladi.

Hunarni ulug'layotgan Ikromjonning orzulari ushali shiga, ibratli ishlar bilan obro' va e'tibor topishida omad tilab qolamiz.

Nodira NAZAROVA

The sentence (Gap)

Gap dep tugallangan fikrni ifodalovchi so'zlar yig'indisiga aytiladi.

The sun rises in the east. – Quyosh sharqdan chiqadi.

Gapning tarkibiga kiruvchi va birorta so'roqqa javob beruvchi so'zlar **gap bo'laklari** deb ataladi.

Gap bo'laklari bosh bo'laklar va ikkinchi darajali gap bo'laklariga bo'linadi.

Bosh bo'laklariga ega va kesim kiradi. Ikkinchi darajali gap bo'laklariga to'ldiruvchi (the object), aniqlovchi (the attribute) va hol (the adverbial modifier) kiradi.

Tuzilishiga ko'ra gaplar sodda va qo'shma gaplarga bo'linadi.

Qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gaplarga va ergashgan qo'shma gaplarga bo'linadi:

The steamer arrived at the port yesterday (Sodda gap).

– Paroxod kecha portga yetib keldi.

The agreement was signed and the delegation left Japon (bog'langan qo'shma gap). – Bitim imzolandi va delegatsiya Yaponiyani tark etdi.



Maqsadiga ko'ra gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) Darak gaplar (Declarative Sentences):
The library is on the second floor.
- b) So'roq gaplar (Interrogative Sentences):
When did you come?
- c) Buyruq gaplar (Imperative Sentences):
Open the door, please.
- d) Undov gaplar (Exclamatory Sentences):
How well she sings!

Your teacher **DINORA**

SARDOR'S VISIT TO DAVRON

Read the text and find the answers to the questions:

1. Why did the train stop?
2. How far away from home was Sardor?
3. Why couldn't Sardor take a bus?
4. Why did Sardor get back at 10 o'clock?



Yesterday Sardor visited Davron. They had supper, and then, at 8 o'clock, Sardor left Davron's house, went to the underground station and took a train back home. But the train stopped at Charsu bazaar and didn't go on because the line was blocked. Sardor got off although he was still about three miles away from home. He wanted to take a bus, but he didn't have enough money. In the morning his mother gave him money but he left it at home. So he couldn't take a bus. He decided to walk the rest of the way home. He finally got back at 10 o'clock.

Kumush TURG'UNOVA,

the pupil of school №54 in Urta Chirchik district, Tashkent region

Let's sing together

(Keling, birga kuylaymiz)

Our day

Breakfast in the morning,
Dinner in the day,
Tea comes after dinner,
Then comes time to play.

Supper in the evening,
When the sky is red,
Then the day is over,
And we go to bed.



Twinkle, twinkle, little star

Twinkle, twinkle little star
How I wonder what you are
Up above the world so high
Like a diamond in the sky

Twinkle, twinkle little star
How I wonder what you are
When the blazing sun is gone
When he nothing shines upon

Then you show your little light
Twinkle, twinkle, all the night
Twinkle, twinkle little star
How I wonder what you are



Gathered by **Dono AHMEDOVA** using internet materials

Different countries, different customs



1. In Iran meal times, villagers gather around a central dish or tray on the floor. Everyone washes their hands before they eat. Then they take food with right hand only.
2. In Japan and China it is impolite to talk when you eat.
3. Uzbek people think it is polite to pour a little tea into the cup for a guest.
4. English people have different manners from Uzbek people. It is polite to cut bread with a knife and to pour tea into the cup for a guest. But it is very impolite to take a noise during the meal.
5. In Germany people cut potatoes with a fork. And it is polite to keep hands on the table or under the table.

Sarvinoz NAZAROVA,
the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

Tongue twisters

(Tez aytishlar)

The cat-catchers can't catch caught cats.

The heir's hair gets into the heir's ear here.

Swim, Sanjar, swim show them you're a swimmer.

Six singers in a ship swiftly shift.

Gulchehra UBAYDULLAYEVA

BUVIJONIM

Hamragadir mehribon,
So'zlarida sehr bor.
Ertak aytib tolmaydi,
Etkalatib hormaydi.

Mahallada himmatli,
Gap-so'zidir qimmatli.
Har ishdadir ibratli,
Uyimiz farishtali.

Suhbatiga shoshilar,
Mehridan bahra olar.
Uzoq umr tilashar,
Duo qiling, deyishar.

Mohira SALIMOVA,
poytaxtimizning
Shayxontohur tumanidagi
262-umumta'lim maktabining
6-«A» sinf o'quvchisi



«BESH» VA «IKKI» BAHO

«Besh» baho yozday issiq,
Tuyuladi kishiga.
«Ikki» baho o'xshaydi,
Arktikaning qishiga.

Shundanmi, biz bolalar,
«5» tomon intilamiz.
«5» bahoga to'ladir,
Daftar, kundaligimiz.



N. SHAVKATOVA chizgan rasmlar

SEVIB, KUYGA SOLAYLIK

Ona tilim – jon tilim,
Senga fido jon-dilim.
Kuylagani madhingni,
Oldim qo'limga torim.

O'zbek elim – mustaqil,
Bo'lgay bundan shod ko'ngil.
Madhingni o'z tilimda,
Kuylab quvonar ko'ngil.

Tilimiz – millat faxri,
Sevib kuyga solaylik.
Keling, shodon bolalar,
Jo'r bo'lishib kuylaylik.

Nazirabonu IBRAGIMOVA,
Buxoro shahridagi
32-umumta'lim maktabining
7-«V» sinf o'quvchisi

OTA-ONAM

Ota-onam doimo,
Bag'ri keng, qalbi daryo.
Bizga shirinso'z har dam,
Ibratidir bir dunyo.

Otam – mening posbonim,
Onam – mening qalqonim.
Ikkisi ham jonajon,
Mehridaryo oftobim.

Maftuna MURODOVA,
Toshkent shahar, Chilonzor
tumanidagi 173-umumta'lim
maktabining 6-«A» sinf
o'quvchisi



OZODAXON

Ozodaxon chaqqon qiz,
Oyisiga yoqqan qiz.
Atirgul-u rayhonnii,
Chakkasiga taqqan qiz.

Har tong erta turadi,
Dastyorlikni qiladi.
Orastaligi uchun,
Hamma yaxshi ko'radi.

Ukasiga qaraydi,
Sochlarini taraydi.
Ertak so'zlab beradi,
Qo'shiq aytib beradi.

Kattaga berar salom,
Kichikka yo'l beradi.
Hurmat qilar barchani,
Olqishlashar qizchani.

Umida TO'RABEKOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi
tumanidagi 38-umumta'lim
maktabining 2-sinf o'quvchisi

QISH

Qarang, har yon oppoq qor,
Qishning ajib sehri bor.
Bolalarning qalbidek,
Qish o'ynoqi, beg'ubor.

Zamin ko'rpa yopingan,
Dalalarda ish tingan.
Kiprikdagi qor kabi,
Yuragingma zavq qo'ngan.

Sevara AHMEDOVA,
Jizzax shahridagi
14-umumta'lim maktabining
8-«A» sinf o'quvchisi

KITOB

Kitoblarim juda ko'p,
O'qiyman sevib, tinmay.
Shundanmi, darslarimni,
Tayyorlayman qiynalmay.

O'rtoqlarim barchasini,
Menga qiladi havas.
Ustozimiz aytganday:
«Kitobsiz omad kelmas».



XONDA XONDA XONDA

Maydonda futbol o'ynab turgan o'quvchilardan biri yiqilib tushdi.

Tomoshabinlar ichidan katta yoshdagi kishi shikast yetmadimikan, deb bolaning yoniga yugurdi. Qarasa, biroz jarohat olibdi. U muxlislarga qarab baqirdi:

MAZAM QOCHADI

– Tezroq suv olib kelinglar...

Bir bola yugurganicha suv olib borib, haligi odamga uzatdi. U suvni olib shosha-pisha ichib yubordi. Suv bergan bola hayron bo'lib so'radi:

– Suvni yiqilganning yuziga sepmay-sizmi?

U bolaga beparvo javob berdi:

– Jarohat olganlarni ko'rsam, yuragim o'ynab, mazam qochib qoladi...



Muzaffar AHMEDOV

Maktabdan chiqib uyga keldim. Oyimga uy ishlarida qarashdim, darslarimni tayyorladim. Keyin doimgidek derazadan ko'chani tomosha qildim. Oynadan qarab turarkanman, beixtiyor o'ylanib qoldim. Oyim har kuni tongda yotog'imga kelib, meni uyg'otadi. Bir gal ulardan so'radim:

– Oyi, sizni kim uyg'otadi?

– Meni xo'roz uyg'otadi, dedi oyim.

– Rostdanimi?! – dedim ishonmay.

– Ha, – dedilar. Oyimdan yana so'radim:

– Oyi, xo'rozni kim uyg'otadi?

– Tongda shunday musaffo havo bo'ladi, u eng avval xo'rozning dimog'iga urilib, uni uyg'otib yuboradi...

Bugun anchagacha onamning gaplarini o'ylab uxlolmadim. Soat o'n ikkilar edi. Endi o'rnimga yotmoqchi bo'lganimda, «qu-qu-qu» degan ovozni eshitib, hayron bo'ldim. Ertalab turganimda, kechasi bemahal qichqirgan xo'roz dong qotib uxlab yotardi. Demak, erta uxlagan erta turarkan, men xo'rozdan oldin uyg'onibman.

XO'ROZNI kim uyg'otadi?




(Hikoya)

Ansor MATYOQUBOV,
poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 163-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

NODIRBEKLAR G'ALABASI

Rossiyaning Sochi shahrida o'tkazilgan maktab o'quvchilari o'rtasidagi jahon chempionatida yigirmaga yaqin davlatdan 190 nafar shaxmatchi o'zaro bellashdi.

Shveysarcha tizimda yetti turdan iborat mazkur musobaqada jahonning eng zo'r yosh shaxmatchilari orasida hamyurtlarimiz Nodirbek Abdusattorov va Nodirbek Yoqubboyev borligi quvonarlidir. Chempionat doirasida tashkil etilgan blits – tezkor shaxmat musobaqasida FIDE ustadasi Nodirbek Abdusattorov kolumbiyalik Luiza Fernanda Dias, Hindiston vakili Rishab



Shoh, mo'g'ulistonlik Xosbayer Xangal, rossiyalik iqtidorli shaxmatchilar Genrix Rolveyzer va Daniel Golikov hamda Turkmaniston vakili Saparmurod Otoboyev ustidan g'alaba qozondi. Turkiyalik Bahodir O'zen bilan durand natijaga erishgan shaxmatchimiz yetti partiyada 6,5 ochko jamg'arib, musobaqa g'olibi bo'ldi. Turkiyalik Bahodir O'zen 2-, Nodirbek Yoqubboyev esa 3-o'rinni zabt etdi.

Muhammadsodiq ALIMOV

ISTIQLOLNING BOLLI YOSHLARI

Farzandlarimizning har tomonlama sog'lom bo'lib ulg'ayishida joylarda tashkil etilayotgan turli sport musobaqalari muhim ahamiyat kasb etayotir. Ana shunday tadbirlardan biri «Quvnoq startlar» televizion sport musobaqalaridir.

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 28-umumta'lim maktabining «Xo'jaijahon» jamoasi, mana bir necha yildirki, ushbu sport bellashuvlarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Bu yilgi musobaqalarning hududiy bosqichi «Yoshlik» sport jamiyati tomonidan joylarda tashkil qilindi. «Xo'jaijahon» jamoasi Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida shu yilning 11–14-avgust kunlari o'tkazilgan bellashuvda Surxondaryo viloyati-

ning «Paxtakor» hamda Qashqadaryo viloyatining «Omad» jamoalaridan ustun kelib, respublika «Quvnoq startlar» televizion sport musobaqalarining yakuniy bosqichiga yo'llanma oldi.

Hal qiluvchi bosqichlar joriy yilning 7–11-noyabr kunlari Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi zamonaviy sport manejida tashkil etildi.

«Xo'jaijahon» jamoasi hal qiluvchi bosqichda Xorazm viloyatining «Omad», Sirdaryo viloyatining «Kamalak» hamda Farg'ona viloyatining «Gulshan» jamoalarini mag'lubiyatga uchratib, musobaqalarning 5 karra g'olibi, Jizzax viloyati, Zarbdor tumanining «Yoshlik» jamoasiga kichik hisobda imkoniyatni boy berib, 2-o'rinni egalladi. Bu yutuqlarga erishishda jamoa bosh murabbiyi, O'zbekiston Respublikasi «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni sohibi To'raqul Xoliqov va yordamchi murabbiylar T. Naimov, G. Nasullayeva, M. Rayhonova, maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari M. Haydarov, Y. Hamidovning hissallari katta.

Nigina MUQIMOVA, Nargiza MIRXO'JAYEVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 28-umumta'lim maktabi o'qituvchilari

SPORTSEVARLARGA MUNOSIB TUHFA

Mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan kundan boshlab, o'tgan davr davomida shahar va qishloqlarda zamonaviy ko'rinish kasb etgan, barcha sharoitlarga ega sport majmualari, umumta'lim maktablarining sport zallari, suzish havzalari qurilib, mavjudlari qayta rekonstruksiya qilindi.

Amalga oshirilgan xayrli ishlar samarasi o'laroq, endilikda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi o'g'il-qizlar soni keskin oshdi, sport majmualari bolajonlarning salomatliklarini tiklash maskaniga aylanib bormoqda.

Toshkent shahrining Bektemir tumanidagi 1-bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning 16 turi bo'yicha 750 nafar o'quvchiga mashg'ulotlar olib boriladi. Maskan tarbiyalanuvchilari nafaqat mamlakat, balki xalqaro musobaqalarda ham yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Yaqinda sport maktabida yangi, usti yopiq suzish havzasining foydalanishga topshirilishi bolajonlar uchun ajoyib tuhfa bo'ldi. Sportning bu turi bilan shug'ullanish istagida bo'lgan o'quvchilar soni tobora ortmoqda.

Xurshida SULAYMONOVA

BUXORODA MERGANLAR BAHSLASHDI

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti yoshlar o'rtasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish, yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, voyaga yetmaganlarning boshlang'ich sport ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan turli sport musobaqalarini tashkil etib kelmoqda.

Buxoro viloyatida tashkilot tizimida shug'ullanuvchi o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida o'tkazilgan mamlakat birinchiligida ham ushbu maqsad mujassam. Musobaqada mamlakatimizning turli hududlaridan 80 nafar ishtirokchi qatnashdi.

Pnevmatik miltiq va to'pponchadan o'q otish bo'yicha o'z yosh guruhida Andijon viloyatidan Saidxon Sayfiddinov, Georgiy Vabanovskiy, Yuliya Kondrashova, Samarqand viloyatidan Rufat Girfanov, Sitora Ergashboyeva, Toshkent viloyati vakili Suhrob Mirzajonov, Surxondaryo viloyatidan Natalya Slastyon, Namangan viloyatidan Komila Isxoqova g'olib bo'ldi.

G'olib va sovrindorlar diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shavkat KAZAKBAYEV

OMADBEKKA OMAD YOR

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 69-umumta'lim maktabi o'quvchilarining bugun quvonchi cheksiz.



Ular uchun yaqinda yangi sport zali qurib bitkazildi. Jami 469 nafar o'quvchini kamolga yetkazayotgan maktab sport zali o'zining keng va yorug'ligi, barcha sport jihozlari bilan ta'minlanganligi bilan alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar bu yerda basketbol, voleybol, badminton, qo'l to'pi, mini futbol, stol tennisi, boks kabi o'nlab sport turlari bilan muntazam shug'ullanishmoqda.

Sport zalida kiyinish va yuvinish, tibbiyot xonalar mavjud.

— To'g'risi, yaratib berilayotgan har bir qulaylik bolajonlar kabi bizni ham xushnud etadi, — deydi maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchisi Shamsiya Mamadiyorova. — O'quvchilarimizning xursandchiligini aytmasak ham bo'ladi. Ular bugun katta zavq bilan mashg'ulotlarga qatnashmoqda. Buning uchun barcha mutasaddi tashkilotlarga o'z minnatdorligimni bildiraman.

Sportning boks turiga qiziquvchi Omadbekning ham ayni damda quvonchi cheksiz. U ustozlaridan boks sir-asrorlarini yanada qunt bilan o'rganmoqda.

— Sport zalimizda men ustozlarim ko'magida mashg'ulotlar olib boryapman, — deydi maktabning 9-sinf o'quvchisi Omadbek Komiljonov. — Bokska mehrim o'zgacha. Shu sababli oldimga katta maqsadlarni qo'ygannan. Shulardan biri boks bo'yicha mamlakatimiz va jahon chempionligiga erishish.

Maktabda Omadbekdek o'quvchilar ko'p. Ular yaratib berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, sport bo'yicha musobaqalarda g'olib bo'lish niyatida.

Farhod ESHMO'MINOV

«ONA VATAN KUYCHISI» KRIPTOGRAMMASI

Shakl-dagi raqamlar-da O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning «Vatandin yaxshi yor bo'lmas» muhammasidan olti misra yashiringan. Uni quyida ta'riflanib raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarni topib, ular orqali bilib oling.

1. Erkin Vohidov muharrirlik qilgan jurnal – 19, 7, 20, 2, 5, 17.
2. «Daraxtlar suhbatlari» turkumidagi sersoya daraxt ta'riflangan she'r – 4, 1, 22, 3, 8, 3, 16, 7, 2.
3. «Jajji Lola paxta terdi, ...» satri bilan boshlanuvchi she'ri – 23, 12, 21, 1, 10, 25, 5, 24.
4. «Donishqishloq latifalari» turkum she'rlari qahramoni – 4, 1, 16, 4, 8, 18, 1.
5. Shoirning qo'shiqqa aylangan qasidasi – 13, 24, 6, 12, 14, 5, 4.
6. Rasul Hamzatovning Erkin Vohidov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asari – 9, 7, 11, 5, 18, 16, 7, 3, 5, 4.
7. Ijodkorning «Garchi shuncha mag'rur tursa ham, ...» satri bilan boshlanuvchi she'ri – 17, 1, 4, 16, 1, 10, 2, 5, 17, 15, 1, 25, 5, 9, 1.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV



Xurmoning FOYDALI XUSUSIYATI

Bu meva ko'plab foydali mikroelementlarga ega.

Xurmodagi glyukoza va fruktoza miqdorining ko'pligi tufayli uning mevasi bilan chanqoqni qondirish mumkin. Olmada mis va rux ko'p bo'lsa, xurmo natriy, kaliy, magniy, kalsiy va temir moddalariga boy. Xurmo mevasi oshqozon-ichak trakti, jigra faoliyatini yaxshilash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bu ichak tayoqchasi va stafilokokkni davolashda kuchli ta'sirga ega. Uning sharbati surunkali diareyadan xalos bo'lishga yordam beradi. Qon bosimi oshganda va shishish kuzatilganda, xurmo barglarini yuvib,

quriting, maydalab kukun holiga keltiring. 5-7 kun davomida ovqatdan so'ng 1/4 choy qoshiqda qabul qiling. Xurmo temir moddasiga boy, shu bois, kamqonlikda uning sharbatini kuniga 2 marta ovqatdan oldin, 50-100 ml.dan ichish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, u asab tizimini tinchlantiradi, ishchanlik faoliyatini oshiradi. Yo'tal bezovta qilganda tomoqni 3,5 oshqoshiq iliq suv bilan aralashgan xurmo sharbati bilan chayish foyda beradi. Internet materiallari asosida Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi

Pazanda qizga!



KARTOSHKALI KOTLETLAR

Kerakli masalliqlar: 300 gramm qiyma, 1 dona piyoz, 4 dona kartoshka, o'simlik yog'i, tuz, zira.



Tayyorlanishi: Qiyma va mayda to'g'ralgan piyozni yaxshilab ezib, aralashtirib olamiz. Unga tuz va zira qo'shib, kichik kotletchalar tayyorlab olamiz. Keyin kartoshkani po'stidan tozalab yirik qirg'ichdan chiqarib, tuz sepib aralashiramiz. Kotlet ustini kartoshka bilan qoplab, qizdirilgan o'simlik yog'ida hamma tomonlarini qizartirib qovurib olamiz. Kotletlar tayyor bo'lgach, yana gaz pechida 10 daqiqa davomida past olovda pishiramiz. **Yoqimli ishtaha!**

NARGIZA tayyorladi

Tong yulduzi
 Muassislar:
 O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
 O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
 «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
 Markaziy Kengashi,
 «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondlari.

Bosh muharrir
 Feruza ADILOVA
 Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
 Dilshod KENJAYEV,
 Svetlana INOMOVA,
 Bahodir G'ANIYEV,
 Murtazo SULTONOV,
 Vahobjon RAJAPOV,
 Zikrilla TESHABOYEV,
 Feruza JALILOVA,
 Feruz MATYOQUBOV
 (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
 Nodira NAZAROVA
Rassom
 Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
 Shaxobiddin
Fotomuxbir
 Zubayda
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
 Manzilimiz va bosmaxona manzili:
 Toshkent shahri,
 Navoiy ko'chasi, 30-uy.
 Indeks: 100011.
 Obuna indeksi: 198.
 e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
 Adadi – 25354
 Buyurtma – S 7764

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
 Shakli A-3, 2 bosma taboq.
 Bahosi kelishilgan narxda.
 Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
 Topshirish vaqti – 18:00
 Topshirildi – 18:00
 Tel./faks:
 (99871) 244-63-08